
Mahallalarda xotin-qizlar bilan ishlashda o'zaro hamkorlik kuchaytiriladi

Bugun Rishton tumani oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan Dorulomon MFYda amaliy seminar tashkil etildi. Seminarda tuman hokimi S.Soliev, hokim o'rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M.Bekmirzaeva ishtirok etdi.

Amaliy seminar davomida 71 ta MFYning xotin-qizlar faollari va OP xodimlari ishtirok etib, MFYdagi mavjud 5ta ko'chada istiqomat qilayotgan oilalarga xonadonbay kirishgan holda, mavjud muammo va kamchiliklar yuzasidan o'rganish ishlarini o'tkazdilar. O'rganishlar jarayonida MFYdagi yosh oilalar, nizoli oilalar, namunali oilalar va muammolari mavjud oilalar o'rganilib, xotin-qizlar faoli, patronaj hamshira va targ'ibot guruhi a'zolari hamkorligida tibbiy va huquqiy ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, xonadonbay o'tkazilgan o'rganish jarayonlarda aholiga huquqiy ma'lumot berilib, mahalladagi ozodalik, sog'lom turmush tarziga rioya etilishi va obodonlashtirish ishlariga befarq bo'lmasliklari yuzasidan targ'ibot ishlari ham olib borildi.

Seminar davomida xotin-qizlar bilan ishlashda hamkor tashkilotlar bilan ishlarni tashkil etish, ayollar muammolari bilan manzilli ishlagan holda ularni hal etish bo'yicha amaliy ishlarni yo'lga qo'yish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Mas'ullarning bu borada yo'lga qo'ygan amaliyotlari va amalga oshirayotgan ishlari xususidagi axborotlari tinglanib, hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiya va takliflar bildirilib, ularni amalga oshirish mexanizmlari tushuntirildi.

2022-08-17 13:17:09